


Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligiga ajoyib tuhfa

Soʻz mulkining sultoni Hazrat Mir Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligi munosabati bilan Fanlar akademiyasi Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi Burobiya Rajabovaning “Boqiy vasiyatnomalar” kitobi nashr etildi.



Mazkur kitobda Alisher Navoiy asarlarida tasvirlangan tarixiy va badiiy obrazlar, timsollar tahlil etilgan. Uning moliyaviy ibodati, mulk haqidagi qarashlari, ayrim fazilat va qadriyatlar haqidagi mumtoz talqinlar tarannum qilingan poetik lavhalar va badiiy mahorati, boqiy vasiyatnomalari, soʻz muddaolari, koʻngil bilan bogʻliq ifodali tasvirlari, ijod, madaniy muhit, ilm-u maʼrifat bilan bogʻliq masalalari ijtimoiy fikr va poetik talqin mezonida tadqiq etilgan. Alisher Navoiyning sharaflari nomi zikr qilingan adabiy manbalar xususida ham fikr yuritilgan.

Kitob oʻrta va oliy oʻquv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari, oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasiga moʻljallangan.